

OILAVIY NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi

*Alfraganus Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy nizolar mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari va shaxs hamda jamiyat hayot faoliyatiga ta'siri psixologik - pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Shuningdek oilaviy nizolarni oldini olish va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati, hamda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, tarbiya, farzand, ajirimlar, oilaviy nizolar, kommunikatsiya, stress, havotir, psixologik tahlil,

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, shaxs tarbiyasi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Sog'lom va barqaror oilaviy munosabatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri sanaladi. Biroq turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, xarakterlar xilma-xilligi, qadriyatlar to'qnashuvi kabi bir qancha omillar sababli oilada turli nizolar yuzaga kelishi tabiiy jarayondir.

Oilaviy nizolar — bu turmush o'rtoqlar, ota-ona va farzandlar yoki boshqa qarindoshlar o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshi fikr, his-tuyg'u va manfaatlar to'qnashuvidir.

Oiladagi nizolarni vujudga kelish sabablari turlicha bo'ladi. Bularga sabab ijtimoiy-iqtisodiy omillar bo'lishligi mumkin, yani oilada moddiy ta'minot yetishmasligi kuzatilishi, oila boquvchisining ishsizligi, daromadning teng taqsimlanmasligi kabilar asosiy omillardan hisoblanadi.

Shuningdek oilaviy nizolarni paydo bo'lishiga psixologik omillar ham sababchi bo'ladi. Oila a'zolarini xarakterlari mos kelmasligi, temperamentlaridagi tafovutlar bunga sabab bo'ladi.

Oilada kommunikatsiya yetishmasligi – yani o'zaro muloqotning sustligi, tushunmovchiliklarni kuzatilishi va bir biriga nisbatan noto'g'ri talqinlar, bir birini o'ylamagan holda noo'rin gapirib qo'yishlar natijasida ham oilaviy nizolar yuzaga keladi.

Tarbiyaviy va qadriyatlardagi farqlar –yani ota va onaning farzand tarbiyasi borasidagi qarashlarning mos kelmaslik holatlari kuzatilishi.

Shaxsiy ehtiyojlar –bunda turmush o'rtog'ining shaxsiy qiziqishlarini inkor etish yoki cheklash, uni dunyoqarashlarini hisobga olmay qaror qabul qilish.

Shuningdek oilaga uchinchi shaxsning aralashuvi ham oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Bu hox onasi, hox singlisi, hox begona shaxs bo'lsin, uning oilaga aralashuvi natijasida katta ko'ngilsizliklar vujudga keladi.

Oilaviy nizolarni o'z vaqtida hal qilinmasa, ular quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:

Oiladagi psixologik muhitning buzilishi, stress va zo'riqishning kuchayishiga olib keladi.

Bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ularda tajovuzkorlik yoki befarqlikning paydo bo'lishi shakllanadi.

Oilaviy ajrimlarning ortishi, ijtimoiy muammolarning ko'payishi kuzatiladi.

Shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligiga zarar yetish holatlari paydo bo'ladi.

Oilaviy nizolarni eng nojo'ya ta'siri bu jamiyatga xulqi og'ushgan, tajovuzkor, yoki turli yomon odatlari shakllangan farzandlarni yetishtirishi hisoblanadi. Oiladagi nizolar sabab farzandlarni uydan qochishi, o'z fikrini mukammal bayon qilolmasligi, nutqida nuqsonlar paydo bo'lishi, yoki jamiyatdagi odatiy narsalarni ham noto'g'ri talqin qilib oladigan bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi.

Oiladagi farzandlarning ruhiy holati va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Psixologik jihatdan: stress, xavotir, tushkunlik va o'z-o'ziga ishonchsizlik ortadi.

Pedagogik jihatdan: farzandlarning xulqi buzilishi, darslarda qiziqishning kamayishi, agressiv yoki passiv xatti-harakatlarning ko'payishi.

Ijtimoiy jihatdan: shaxsning do'stona munosabatlarga kirisha olmasligi, jamiyatga moslashishdagi qiyinchiliklar kuchayadi.

Oilaviy nizolar nafaqat farzand tarbiyasi balkim jamiyat hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Oila jamiyatning ijtimoiy hujayrasi sifatida uning ichki muammolari kengroq miqyosda jamiyat barqarorligiga ta'sir etadi. Oilaviy nizolar oqibatida:

Ajrimlar soni ko'payadi, bu esa ijtimoiy yetimlik muammosini yuzaga keltiradi.

Jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqa ijtimoiy illatlar kuchayishi mumkin.

Mehnat unumdorligi pasayadi, ijtimoiy munosabatlarda beqarorlik holatlari yuzaga keladi.

Oilaviy nizolarni oldini olishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati

Oilaviy nizolarni o'z vaqtida oldini olish shaxsning psixologik barqarorligi va oilaning ijtimoiy totuvligi hamjihatligini ta'minlaydi. Ularning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Shaxsiy rivojlanishda katta ahamiyatga ega, stress va asabiy zo'riqish kamayadi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat mustahkamlanadi.

Farzandlar tarbiyasida esa sogʻlom oilaviy muhitda ulgʻaygan bolalar ijtimoiy faol, masʼuliyatli va barqaror shaxs sifatida shakllanadi.

Jamiyatda ham nizolarning kamayishi oiladagi ajrimlar, ijtimoiy yetimlik va turli illatlarning oldini oladi.

Oilaviy nizolarni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari

Oilaviy nizolarni hal qilishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyatga ega: Samarali va chiroyli kommunikatsiya – oʻzaro ochiq muloqot, tinglash va tushunishga asoslangan suhbat. Empatiya – oila aʼzolarining bir-birining his-tuygʻularini tushunishi va inobatga olishi.

Psixologik maslahat – nizolarni hal etishda mutaxassislar koʻmagi.

Murosaga kelish – tomonlar manfaatlarini hisobga olgan holda oʻzaro kelishuvga erishish.

Stressni boshqarish – oilaviy stressni kamaytiruvchi psixologik usullarni qoʻllash madaniy dam olish

Sogʻlom oilaviy muhitni shakllantirish omillari

Sogʻlom oilaviy muhit – bu mehr, hurmat, ishonch va masʼuliyat tamoyillariga asoslangan psixologik-ijtimoiy muhitdir. Uni shakllantirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

Oila qadriyatlarini mustahkamlash: milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan turmush tarzi.

Ota-onaning pedagogik savodxonligi: farzand tarbiyasida ilmiy asoslangan yondashuvlar.

Psixologik madaniyatni rivojlantirish: oilada muomala odobi, sabr-toqat va bagʻrikenglikni targʻib qilish.

Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash: davlat va jamiyat tomonidan oilalarga moddiy hamda psixologik yordam koʻrsatish.

Boʻsh vaqtni samarali tashkil etish: oila aʼzolarining birgalikdagi dam olish faoliyatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Karimova, V. M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2014.
2. Gʻoziev, E. Gʻ. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Jalolov, J. J. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Abdullayeva, Q. Oilaviy tarbiya va ijtimoiy muhit. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2016.
5. Mahmudova, N. Oila va farzand tarbiyasida psixologik xizmatning oʻrni // Psixologiya jurnali, 2020, №2.
6. Zunnunov, A. Oila va nikoh sotsiologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
7. Rasulova, M. Oila va yoshlar tarbiyasining ijtimoiy-psixologik muammolari. – Toshkent: Fan, 2017.

8. Ergashev, I. Oila pedagogikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi” (2022-yil) farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Oila institutini rivojlantirish konsepsiyasi” (2021-yil).

